

Xavf-xatarlarni baholash.


Bank faoliyatidagi asosiy funksiyalar bo'yicha korrupsiyaviy xavf-xatarlar baholangan. Baholash jarayonida jami **21 ta funksiya** ko'rib chiqilgan hamda ularning korrupsiyaviy xavf-xatarga moyillik darajasi aniqlangan. Jumladan 11 ta maqbul (past), 9 ta o'rtacha va 1 ta yuqori xavf-xatarlar mavjud deb belgilandi va tasdiqlandi.

Funksiyalarning aksariyat qismi **o'rta** va **past** darajadagi xavf-xatar toifasiga kiritilgan, kreditlash faoliyati esa **yuqori** xavf darajasiga ega ekanligi aniqlangan.

Aniqlangan xavf-xatarlarni kamaytirish maqsadida tegishli tashkiliy, nazorat va profilaktik choralar amalga oshirilishi belgilab olindi. Xususan, ichki nazorat mexanizmlari kuchaytirilgan, tartib-taomillar qayta ko'rib chiqilgan hamda monitoring jarayonlari yo'lga qo'yildi.

Ko'rilgan choralar natijasida funksiyalarning mutlaq ko'pchiligi bo'yicha **qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi past** darajaga tushirilgan. Kreditlash funksiyasi bo'yicha esa qoldiq xavf **o'rta** darajada saqlanib qolgan bo'lib, mazkur yo'nalishda doimiy kuchaytirilgan nazorat tadbirlari amalga oshirilmoqda.

Mazkur baholash natijalari bankda korrupsiyaga qarshi boshqaruv tizimi samarali joriy etilganligini hamda xavf-xatarlarni minimallashtirish bo'yicha tizimli choralar ko'rilganligini ko'rsatadi.



2026-yilda 2025-yilga nisbatan korrupsiyaviy xavf-xatarlar tarkibida ijobiy o'zgarishlar kuzatilgan. Xususan, **o'rta darajadagi xavf** 11 tadan 9 taga kamaygan, **past darajadagi xavf** esa 10 tadan 11 taga oshgan. Bu amalga oshirilgan profilaktik va nazorat chora-tadbirlari samarali bo'lganini ko'rsatadi.

Shuningdek, bankda korrupsiyaviy xavf-xatarlarga eng ko'p moyil bo'lgan funksiya va lavozimlar ro'yxati shakllantirilgan, 2026-yilda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha maqsadlar belgilangan hamda o'quv-trening mashg'ulotlarini o'tkazish yuzasidan reja-dastur tasdiqlangan.

Joriy holatga ko'ra, korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi 308 **nafar xodimda past**, 312 **nafar xodimda o'rta**, 336 **nafar xodimda yuqori** deb baholangan.

Korrupsiyaviy xavf yuqori darajada bo'lgan lavozimlarning **xavf-xatar darajasini pasaytirish** bo'yicha virtual akademiyasida 197 nafar xodimlar o'qitilda va yana 400 nafardan yuqori xodimlar o'qitish jarayonida.